



## FORISH TUMANI TARIXIDAN LAVHALAR

**Dehqonova Farangiz G‘ulom qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Jizzax viloyati Forish tumanining tarixiy ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tuman hududida qadimdan mavjud bo‘lgan madaniyat va arxeologik yodgorliklar, Nurota tog‘lari va ularning tabiiy hamda tarixiy boyliklari tahlil qilinadi. Shunindek, tumanning tashkil topishi, iqtisodiy rivojlanishi va madaniy hayotiga oid ma‘lumotlar ham maqolada yetarlicha berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Forish tumani, Jizzax viloyati, Amir Temur, arxeologik izlanishlar, Nurota qo‘riqxonasi, Mozortepa, Oqtepa-2, Xonbandi, tabiiy resurslar.

Jahonning turli hududlarida yashovchi millatlar, xalqlar va elatlar har doim o‘zlarining kelib chiqishi, tarixi hamda madaniyati, rivojlanish bosqichlari, bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni anglashga intilib kelishgan. Bu jarayon bevosita o‘zbek xalqi tarixiga ham tegishli bo‘lib, bugungi kunda u dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, o‘tmish saboqlaridan tegishli xulosa chiqarish, millat, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, qolaversa o‘zlikni anglashda tarix fanining o‘rni beqiyos.

Shunday ekan ushbu maqola orqali ham biz tomonimizdan Ona Vatan deya ardoqlanuvchi, tug‘ilib o‘sgan joyim Forish tumani haqida ayrim ma‘lumotlar e‘tiboringizga havola etiladi. Forish tumani – Jizzax viloyatidagi tuman bo‘lib, 1935-yil 9-fevralda tashkil etilgan. Uning keyingi taqdiri 1962-yilda Nurota va Jizzax tumanlari tarkibiga qo‘shib yuborilgan. Keyinchalik, 1964-yilda qayta tashkil etilgan. Ushbu tumanning qisqacha ma‘muriy birliklar tarkibidagi faoliyati



tarixiga to'xtalsak, Forish tumani dastlab Samarqand, 1964-yil Sirdaryo, 1974-yil Jizzax viloyatlari tarkibiga kiritilgan.

Forish tumani tabiiy joylashuvi shimoliy va shimoli-sharqdan Qozog'iston, sharqdan Sharof Rashidov, Zafarobod, Arnasoy, Do'stlik, Mirzacho'l tumanlari, janubidan G'allaorol tumani, g'arbdan Samarqand, Navoiy viloyatlarining Qo'shrabot, Nurota tumanlari bilan chegaradosh hisoblanadi. Tumanning umumiy maydoni 9,53 ming km<sup>2</sup> ga teng.

Mahalliy ma'lumotlar bo'yicha tuman nomiga o'tgan Forish qishlog'ining nomi Amir Temur Samarqand atrofida qurdirmoqchi bo'lgan „Parij“ shahri nomidan olingan. Keyinroq mahalliy xalq shevasida bu atama Farij, Farish, Forish deb o'zgarib borgan degan, taxmin mavjud.

Hozirgi kunda tumanda 2 shaharcha (Uchquloch, Bog'don), 11 qishloq fuqarolari yig'inlari, jumladan: Arnasoy, Garasha, Gulzor, Darvoza, Omongeldi, Osmonsoy, Uxum, Forish, Egizbuloq, Qizilqum, Qorabdol kabi kichik ma'muriy birliklar mavjud. Forish tumanining markazi – Yangiqishloq shaharchasi bo'lib, tumanda, asosan, qishloq xo'jaligining chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, tokchilik tarmoqlari keng rivojlangan.

Forish tumani yer osti boyliklariga to'xtaladigan bo'lsak, hududdan qo'rg'oshin, rux, ohaktosh, bazalt, marmarlashgan qora ohaktosh ochiq usulda qazib olinadi. Tumandagi „Karbonat“, Uchquloch koni, „Devon“, „Forteks“ va boshqa korxonalar samarali faoliyat ko'rsatmoqda[2].

Forish tumanida joylashgan ayrim madaniy yodgorliklar va ularning qisqacha sharxiga to'xtalsak, ulardan biri Mozortepa — O'zbekistondagi madaniy me'ros obyekti, arxeologiya yodgorligi hisoblanadi. Bu yodgorlikning davriy sanasi VI—VIII asrlar bo'lib, u Jizzax viloyatining Forish tumanida Nurak qishlog'ida joylashgan. Ushbu tarixiy yodgorlik Jizzax viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning



ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan[1].

Navbatdagi arxelogiya yodgorligi Oqtepa-II — O'zbekistondagi madaniy me'ros obyekti hisblanadi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, yodgorlikning davriy sanasi X—XIII asrlarda faoliyatda bo'lgan. Bu arxeologiya obyekti Jizzax viloyatining Forish tumani “Osmonsoy” MFY, Oqtepa qishlog'ida joylashgan. Jizzax viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan[3].

Xonbandi to'g'oni — O'zbekistonda qadim zamondan bizning davrimizgacha saqlanib kelgan suv inshootidir. U Jizzax viloyati Forish tumanidagi Band shaharchasi yaqinida joylashgan. Tadqiqotchi olimlarning fikricha, to'g'on haqida yozma manbaalar mavjud emas. Shunday bo'lsada, taxminiy sanasi turli xil keltiriladi - X asr, XVI asr (1582 yil) bilan belgilanadi. Ushbu to'g'on 1973-yildan buyon respublika miqyosidagi yodgorlik sifatida davlat muhofazasida saqlanadi.

To'g'onning uzunligi 50 metrdan ziyod, pastidan 24 metr, balandligi 15 metrdan ziyod. To'g'on tekislangan rangdor koshinlardan maxsus suv ko'taruvchi aralashma yordamida terilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, XVII asrga kelibgina Paskal qonuni asosida shakllangan usuldan bundan necha yillar avvalroq Movaruunnahr muhandis-gidrotexniklari suyuqlik bosimini hisobga ola bilishgan. To'g'onning g'arbiy qismidagi suv bo'shatmasida turli balandliklarda 9 ta konussimon shaklda yoriqlar qurilgan. To'g'on poydevori tepa qismidan 4 barobar qalinroq. Pastki qismining qalinligi 8 metr, tepasi 2 metr. Avvallari to'g'on o'zida uzunligi 1,5 km, kengligi 52 metrga, daraning boshlanish qismi 200 metrga teng suv omborini saqlagan[4].

“Nurota” davlat qo'riqxonasi” Pomir-Oloy bilan Tyan-shan tog' majmualari va Turon pasttekisligining orasidagi o'tish hududida joylashgan Nurota



tog' tizmasining markaziy qismida joylashgan. Nurota tog' tizmasi Turkiston tizmasi hududidan shimoliy – g'arbga qarab 200 km-gacha cho'zilgan bo'lib, Qizilqum sahrosi ichkarisiga chuqur kirib boradi.

Qo'riqxonaga Jizzax viloyati Forish tumani hududida dengiz sathidan 500 m.dan 2169 m. balandlikda joylashgan bo'lib, janubdan Samarqand viloyatining Payariq, Qo'shrabot, g'arbdan Navoiy viloyatining Nurota tumanlari bilan chegaradosh. "Nurota" davlat qo'riqxonasi" Jizzax viloyati markazidan 100 km, Forish tumani markazidan 40 km uzoqlikda joylashgan.

Tabiiy sharoiti: Qo'riqxonaga iqlim sharoiti quruq va issiq, geologik tuzilmasida proterozoy uglerodli, karbonli-grafitli va ohak – kremniyli slaneslar asosiy rol o'ynaydi. Florasi: "Nurota" davlat qo'riqxonasi"da 847 tur o'simliklar aniqlangan bo'lib, shundan 32 turi yo'qolib ketish arafasidagi yoki "Qizil kitob"ga kiritilgan turlardir. Faunasi: "Nurota" davlat qo'riqxonasi"si hududida umurtqali hayvonlarning 260 turi uchrashi kuzatilgan. TMXI "Qizil ro'yxati" va O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan noyob hayvon va qushlar 32 turni tashkil etadi.

Qo'riqxonaga himoya maydonida joylashgan 2000 yillik (Archa) Savr daraxti yoki Sharq Biotasi (Biota Vostochnaya) alohida ahamiyatga ega bo'lib, obyekt Forish tuman markazidan 55 km uzoqlikda "Do'stlik" MFY, Mojrum qishlog'ining yuqori qismida "Nurota" davlat qo'riqxonasi"ning chegarasida joylashgan. Bundan tashqari qo'riqxonaning Seversov qo'ylarini (tutqunlikda saqlash, ko'paytirish usullari va biologiyasini o'rganish maqsadida tashkil etilgan 16 ga yer maydoniga ega pitomnigi (volyer)da parvarishlanayotgan Seversov qo'ylari xorijiy va mahalliy sayyohlarni diqqatini tortishi shubhasiz. Qo'riqxonaning ma'muriy binosi Forish tumani markazi Bog'don shaharchasi Qo'riqxonaga ko'chasi 5-uyda joylashgan[5].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Forish tumani va uning tarixi o'zining uzuq-yuluq, to'liq bo'lmagan ma'lumotlariga ega bo'lsada hozirgi kunda ilmiy-arxeologik tadqiqotlarga, tekshiruvlarga tortilgan Jizzax viloyati tumanlaridan biridir. Forish



tumani va uning vujudga kelishi tarixi haqida tarixchilar ichida yakdil xulosalar mavjud emas. Lekin, shunday bo'lsada, Forish tumani hududida dastlabki ibtidoiy odamlarni paydo bo'lishi o'rta paleolit davri bilan belgilangan, bu narsa fanda arxeologik materiallar asosida o'z tasdig'ini topgan. Forish tumanining hali ilmiy-tarixiy yangiliklarini yuzaga chiqarmagan tarixiy-arxeologik madaniy maskanlari ko'p bo'lib, kelajakda qilinadigan tadqiqotlar bu ilmiy yangiliklarga o'z sirtini ko'rsatishgan imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli qarori. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) internet sayti.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent. 2005.212-213-b.
3. Oqtepa-II yodgorligi. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org). ineternet sayti.
4. Xonbandi plotinasi. [www.meros.uz](http://www.meros.uz). ineternet sayti
5. [www.gov.uz](http://www.gov.uz). internet sayti